

BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-aprel holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

15 821



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

2 119



Oilaviy korxonona

155



Unitar korxonona

3 834



Xususiy korxonona

40




Aksiyadorlik jamiyati

168




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



xususiy korxonona birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020-yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020-yil yanvar-mart oylarida 1 320 tadan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 969 ta, xususiy korxonalar – 89 ta, oilaviy korxonalar – 201 ta, muassasalar – 21 ta va boshqalar – 40 tani tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi (1-aprel holatiga ko'ra)




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 3 730 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,5 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 118,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 95,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 157,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,3 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 1,7 barobarga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 114,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o'sishidir.


Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 519 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,9 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 118,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 66,7 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 99,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,6 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 138,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 25,7 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5 967 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,3 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 129,8 % ga (jami savdodagi ulushi 63,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 123,3 % ga (jami savdodagi ulushi 29,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 111,5 % ga (jami savdodagi ulushi 7,4 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat
568 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash
16 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
12 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



365

yashash bo'yicha xizmatlar




1 554

oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonona va tashkilotlar soni 1 919 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 138,1 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 137,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 81,0 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 139,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 19,0 %) o'sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 248 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,3 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, o'tgan yilga nisbatan – 137,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,4 %), axborot sohasidagi xizmatlar, o'tgan yilga nisbatan – 105,2 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 24,6 %), noshirlik xizmatlari, o'tgan yilga nisbatan – 110,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,3 %) dasturlar tuzish va teleradio-eshittirishlar bo'yicha xizmatlar, – 83,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,0 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari, o'tgan yilga nisbatan – 125,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 28,2 %), aloqa xizmatlarining – 119,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 27,5 %) o'sishidir.


Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-yanvardagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 17-son qaroriga muvofiq **IT-PARK** ishga tushdi.

IT-PARK maqsadi:

-yosh iqtidor egalari g'oyalarini istiqbolli biznes loyihalariga aylantirishga ko'mak beradigan maskan;

-yuridik shaxslarni uning rezidentlari sifatida ro'yxatdan o'tkazish, soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibini belgilash, "startup-loyihalarni" har tomonlama, shu jumladan, venchur moliyalashtirish asosida qo'llab-quvvatlash.

Oilaviy korxonalar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 2 119 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 850 taga yoki 1,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 970 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 752 taga yoki 1,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 201 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 63 taga yoki 23,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 15 821 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 175 taga yoki 125,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15 029 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 938 taga yoki 124,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 969 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 664 taga yoki 40,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 294 tani tashkil etib, ulardan 284 tasi yoki 96,6 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 93 taga yoki 46,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda 13 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	80	81	97	193	284
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1	1	2	17	20
Sanoat	58	60	59	90	121
Qurilish	3	2	4	12	31
Savdo	7	8	13	37	55
Tashish va saqlash	1	2	0	3	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	7	14	21
Axborot va aloqa	0	0	1	0	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	1	4	6
Boshqa turlar	3	1	10	16	24

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	7 140	8 248	9 141	12 091	15 029
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	868	1 062	1 254	1 608	1 950
Sanoat	1 271	1 434	1 519	2 133	2 566
Qurilish	1 029	1 083	1 244	1 674	2 114
Savdo	1 911	2 253	2 224	3 203	4 137
Tashish va saqlash	758	886	948	1 076	1 225
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	372	403	460	660	908
Axborot va aloqa	121	124	129	137	170
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	163	189	235	290	354
Boshqa turlar	647	814	1 128	1 310	1 605

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	561	728	1 218	1 970
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	107	108	125	172
Sanoat	167	199	369	531
Qurilish	6	8	12	16
Savdo	90	101	230	426
Tashish va saqlash	9	7	10	18
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	136	220	367	625
Axborot va aloqa	8	6	7	12
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	16	27	37
Boshqa turlar	31	63	71	133

Buxoro viloyatida chet el davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	57	35	22
Xitoy xalq Respublikasi	32	17	15
Koreya Respublikasi	22	12	10
Turkiya Respublikasi	34	23	11
Eron Islom Respublikasi	13	8	5
Turkmaniston Respublikasi	36	12	24
Afg'oniston Respublikasi	15	3	12
Hindiston Respublikasi	7	3	4
AQSH	12	7	5
Boshqa davlatlar	56	35	21


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Buxoro viloyati	284	155	129
<i>туманлар:</i>			
Olot	6	1	5
Buxoro	12	9	3
Vobkent	7	6	1
G'ijduvon	11	6	5
Kogon	21	18	3
Qorako'l	8	3	5
Qorovulbozor	9	5	4
Peshku	17	6	11
Romitan	10	4	6
Jondor	11	7	4
Shofirkon	9	6	3
Buxoro sh.	148	73	75
Kogon sh.	15	11	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 148 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 52,1 %), Kogon 21 ta (7,4 %), Peshku 17 tani (6,0 %), Kogon sh. 15 ta (5,3 %), Buxoro 12 ta (4,2 %), G'ijduvon va Jondor 11 ta (3,9 %) hamda Romitan tumanlarda 10 tani (3,5 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Buxoro shahri (31,3 %), G'ijduvon (10,9 %), Romitan (8,1 %), Buxoro (7,6 %), Jondor (6,5 %), Shofirkon (5,9 %), Peshku (5,9 %), Qorako'l (5,2 %), Kogon (5,1 %), Vobkent (4,5 %), Kogon sh. (3,9 %), Olot (3,1 %), Qorovulbozor (2,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahrida (27,9 %), G'ijduvon (11,7%), Romitan (9,2 %), Buxoro (7,7 %), Jondor (7,0 %), Vobkent (5,9 %), Peshku (5,8 %), Qorako'l (5,7 %), Kogon (5,3 %), Shofirkon (4,3 %), Olot (3,7 %), Kogon sh. (3,6 %), Qorovulbozor (2,2 %) tumanlari ulushiga ega.




Hududlar kesimida har 1 000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni¹⁾

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida har 1 000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni²⁾

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




¹⁾ 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.

²⁾ Doimiy aholi soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra shakllantirilgan


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Buxoro shahrida (32,4 %), Romitan (10,3 %), G'ijduvon (9,8 %), Jondor (7,8 %), Buxoro (7,2 %), Peshku (6,4 %), Shofirkon (5,6 %), Kogon (5,2 %), Vobkent (4,2 %), Qorako'l (3,4 %), Kogon sh. (3,4 %), Qorovulbozor (2,4 %) va Olot (1,7 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)




2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.04.2019-yil	01.04.2020-yil
Buxoro viloyati	512 987	16 880	20 688
Buxoro sh.	87 175	5 704	6 749
Kogon sh.	15 915	603	801
Buxoro	41 422	1 214	1 560
Vobkent	36 097	727	894
Jondor	45 425	1 141	1 372
Kogon	20 712	852	1 098
Olot	26 322	460	545
Peshku	33 176	969	1 194
Romitan	34 895	1 355	1 765
Shofirkon	44 721	968	1 139
Qorako'l	41 919	786	989
Qorovulbozor	5 322	299	416
G'ijduvon	79 886	1 802	2 166

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020-yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)




2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Buxoro sh. (16,4 %), G'ijduvon (14,9 %), Buxoro (11,4 %), Qorako'l (10,9 %), Vobkent (10,4 %), Kogon sh. (7,0 %), Shofirkon (5,5 %), Peshku (5,5 %), Kogon (5,5 %), Jondor (4,0 %), Romitan (4,0 %), Olot (4,0 %), Qorovulbozor (0,5 %) tumanlarida yangi oilaviy korxonalar ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Buxoro viloyati
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Tel.: 65 223-83-20